

Bolalarda o'z joniga qasd qilishning ayrim ijtimoiy-psixologik jihatlari

Oxunjon Odil o'g'li Hamroqulov
olimovlaziz82@gmail.com
Gijduvon pedagogika kolleji

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda o'z joniga qasd qilishning ayrim ijtimoiy-psixologik jihatlari tavsifi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Suitsidal xulq-atvor nazariyasi, "O'z-o'zini o'ldirish" nazariyasi, Suitsidal xulq-atvorning psixodiagnostikasi. Suiqasdning turlari, haqiqiy suiqasdlik xulqi va suiqasdlik holatining dinamik rivojlanishi. Bolalar va o'smirlar suitsidining sabab va motivlari

Some socio-psychological aspects of suicide in children

Oxunjon Odil o'glu Hamroqulov
olimovlaziz82@gmail.com
Gijduvon pedagogical college

Abstract: This article describes some of the socio-psychological aspects of suicide in children

Keywords: Suicidal Behavior Theory, Suicide Theory, Psychodiagnostics of Suicidal Behavior. Types of assassination, real assassination behavior, and dynamic development of assassination status. Causes and motives of suicide in children and adolescents

O'z joniga qasd qilish va o'z joniga qasd qilishga urinish kishilik jamiyatida qadimdan mavjud bo'lib, bu muammoga turli davrlarda turlicha munosabat bildiriladi. O'z joniga qasd qilish ayrim mamlakatlarda qoralangan bo'lsa, ayrimlarida esa mardlik, jasurlik, sevgi muhabbatga sadoqatlik ramzi sifatida ulug'langan. Qadimgi Hindiston, Xitoy va Yaponiyada o'z joniga qasd qilish ijtimoiy, avvaldan belgilab qo'yilgan majburiy harakatga ega bo'lgan voqea - hodisa deb karalgan bo'lsa, islom mamlakatlarida bu hodisa qoralanadi. Qadimgi Rimda ham o'z joniga qasd qilishga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishgan. Hindistonda eri olamdan o'tgan ayollar jamoa nafratiga uchramaslik uchun o'zini-o'zi o'ldirishga mahkum bo'lgan.

O'z joniga qasd qilish hodisasi diniy ilmlar tomonidan ham o'rganilgan bo'lib, u barcha dinlarda qoralanadi. Xususan, islom dinida bu hodisaga nisbatan salbiy

munosabat bildirilib jumladan "Hadis" to'plamlarida takidlanishicha: - "Bir kishi o'zini-o'zi jarohatlab o'ldirdi, shunda Oллоh - taolo "bandam mendan ilgari o'z jonini o'zi oldi, uni men jannatdan mahrum qilaman" deyiladi".

O'z joniga qasd qilish hodisasini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga XIX asrning XX asrning boshlaridan boshlab kirishila boshlandi. Bunga birinchidan, butunlay dunyo miqyosida o'z joniga qasd qilish hodisasining ortib borayotganligi sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan suitsid muammosini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishi bu muammoni har tomonlama o'rganishga turtki bo'ldi.

Asrimizning boshlarigacha bo'lgan davrda o'z joniga qasd qilish hodisasini o'rganish bir qancha yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan bo'lib, bu yo'nalishlarning deyarli barchasi suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka asoslangan nazariyalarni o'rtaga tashlaydi. Masalan, suitsidni o'rganishning sotsiologik yo'nalishdagi nazariyasi namoyondalari (asoschisi E.Dyurkgeym) o'z joniga qasd qilish xulqi faqatgina ijtimoiy muhit ta'siri natijasida yuzaga keladi deb hisoblab, suitsidial xulqning keltirib chiqaruvchi boshqa (psixologik, patologik, biologik) omillarni ko'ra bilmaydilar. Bu yo'nalishning asoschisi hisoblangan E.Dyurkgeym o'zining 1897 yilda chop etilgan "O'zini-o'zi o'ldirish" nomli asarida "O'z joniga qasd qilish psixik yoki organik kasalliklar natijasida bo'lmay, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning izdan chiqishi yoki buzilishi mahsulidir"; - deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra suitsidni yuzaga keltiruvchi va sabablarni shaxsning ruhiy va individual psixologik xususiyatlaridan emas balkim, jamiyatdan, undagi ijtimoiy muhitdan izlash kerakdir. Uning ta'kidlashicha o'z joniga qasd qilish ijtimoiy hodisa bo'lib, uning miqdori har bir jamiyatda individga ta'sir qiluvchi "jamo" kuchi bilan boshqariladi va bu kuchning faolligi jamiyatda amal qilinadigan institutlar (oila, davlat, partiya va boshq.) tili bilan belgilanadi. Ya'ni suitsid ko'lami ijtimoiy tizimning "noinsoniy" strukturasi bilan bog'liqdir.

Rossiyada suitsidni tadqiq qilishning sotsiologik yo'nalishi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, M.N.Fenomenov o'z tadqiqotlarida suitsidal urinish sabablarini E.Dyurkgeym ta'kidlaganidek, "ijtimoiy institutlardan emas balki, mamlakatda hukm surayotgan ichki nosog'lom muhit va insoniy munosabatlar nosog'lomligidan izlash o'rinlidir deb ko'rsatadi. Ijtimoiy inqiroz deydi u, eski hayot tarzining yaratilishiga imkoniyat tug'diradi". Bu o'rin almashish insonlar jamoasiga ham tegishli bo'lib, keksalar o'rniga yangi avlodning kelishini taminlaydi". Bu davr oralig'ida deydi Fenomenov, - "suitsid ba'zan ko'payishi, ba'zan esa kamayishi mumkin". M.N.Fenomenov fikrlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak muallif, suitsid bir tomondan tabiiy hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxsning individual psixologik xususiyatlari, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhit o'zgarishlarini insonlar tomonidan ruhiy qabul qilinishiga, ya'ni ijtimoiy muhit voqea - hodisalariga bog'liqdir degan fikrni ilgari surganligining guvohi bo'lamiz.

Suitsidni o'rganishning sotsiologik yo'nalishi tarafdorlari garchand suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka berilgan bo'lsalarda biroq, suitsidni tahlil qilish va uning oldini olish borasida qator qimmatli fikr va mulohazalarni ilgari suradilar. Xususan, bu yo'nalishning asoschisi E.Dyurkgeym o'zigacha bo'lgan davrdagi suitsid muammosiga bag'ishlangan barcha nazariy va amaliy tadqiqotlarni bir tizimga solib, suitsid muammosiga ilmiy ta'rif berishga harakat qiladi. E.Dyurkgeymning "suitsid ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotdan ketishga qaratilgan, anglanilgan, qasddan qilingan xatti-harakatlar" degan tushunchasi o'z davrida suitsid ruhiy nosog'lomlik mahsulidir degan ta'limotga qattiq zarba beradi. Biroq, E.Dyurkgeym qarashlarida suitsidning talqin qilishda ijtimoiy ustunlik qilganligi tufayli uni bir yoqlamalilikka ayblashadilar.

Suitsidni huquqiy tadqiq qilish borasida ham qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularda suitsidni xuquqiy jihatdan talqin qilishga harakat qilinadi. Suitsidni huquqiy jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida M.N.Gernet ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Muallifning ko'p yillik kuzatishlarini o'z ichiga olgan "Moralnaya statistik" (ahloqiy statistika) nomli asari bu sohadagi dastlabki yirik asarlaridan biri sifatida maydonga keldi. Shuningdek, N.I.Zagorodnikov suitsidni jinsiy javobgarlikka tortish nuqtai nazaridan tadqiq qilib, suitsid bira to'la ikki jinoyatni - qasddan qilinganlar og'ir tan jarohati yetkazish va ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan o'limni keltirib chiqaradi deb ko'rsatadi.

Suitsidni psixologik jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, ulardan affektiv holatlarning suitsidga ta'siri, shaxs xulq atvoridagi o'zgarishlar, ruhiy tushkunlik va ruhiy kechinmalarining suitsidal xulqning kelib chiqishi o'rni kabilar tahlil qilinganligining guvohi bo'lamiz. Suitsidni psixologik jihatdan tadqiq qilish yuzasidan qator tadqiqotchilar samarali ilmiy izlanishlar olib borishdi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga shaxsning individual psixologik va mijoz turlarining ta'siri hamda suitsidning psixologik ma'nosi kabilar o'rganildi. Biroq, suitsidni o'rganishning boshqa nazariyalari singari psixologik nazariya tarafdorlari ham suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka berilganliklari kuzatiladi. Natijada suitsidning psixologik ma'nosini aniqlash va psixologik asoslashda qator noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Xususan, ular suitsidal xulqning psixologik mexanizmlarni izohlashga harakat qilsalarda, biroq suitsidal xulqning ruhiyat sog'lomlik va nosog'lomlik holatlariga bog'liqligi masalasini tahlil qilishda chalkashliklarga yo'l qo'yadilar.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida kattalar suitsidi bilan bir qatorda bolalar va o'smirlar suitsidi muammosi yuzasidan ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Biroq, ilmiy adabiyotlar tahlili bu davrda bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilish yuzasidan olib borilgan ishlarning yetarli emasligini ko'rsatdi. Shunga karamasdan bu sohada ma'lum ilmiy tadqiqotlar olib borildiki, bu bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilishning keyingi yillardagi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu o'rinda

F.K.Terexovkaning ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash mumkin. Uning ta'kidlashicha bolalar va o'smirlar suitsidining motivlari rolini "jazolanishdan qo'rqish", "g'am-g'ussa", "sevgi va rashk" kabilar o'ynashi mumkin. Muallifning fikriga qaraganda bolalar va o'smirlar suitsidining oldini olish uchun ularni mustahkam irodali, sog'lom fikrli va keng fe'l atvorli qilib tarbiyalash lozimdir. Shuningdek, uning ta'kidlashicha suitsidi o'zini hayotdan mahrum etishiga emas balki nomaqbul vaziyatlarga nisbatan "norozilik" sifatida yo'naltirilgan xatti-harakatdir.

F.K.Terexovkaning bolalar va o'smirlar suitsidiga bag'ishlangan qator ijobiy fikr va mulohazalari mavjudligiga qaramasdan uning ayrim noaniq fikrlari ham uchrab turadi. Jumladan, uning bolalar va o'smirlar suitsidi kattalar suitsidi singari ruhiy nosog'lomlik mahsulidir degan fikri qator tanqidiy mulohazalarga sabab bo'ladi. Shuningdek, uning bolalar va o'smirlar suitsidining oldini olishda ijtimoiy psixologik va psixiatrik tadbirlardan foydalanish befoyda va behudadir degan fikri ham qattiq qarshilikka uchraydi. 1900-1912 yillarga kelib, Rossiyada ayrim vrachlarning suitsidni o'rganishga bag'ishlangan shaxsiy statistik tadqiqotlari paydo bo'la boshlaydi. Shunday shaxsiy statistik tadqiqot mualliflaridan biri M.N.Gernet (1922) bo'lib, u o'z tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidining statistik tahlili bilan shug'ullanib, Rossiyada va butun dunyoda bolalar va o'smirlar suitsidi yildan-yilga ortib borayotganligi haqidagi xulosaga keladi. Xalq ta'limi statistik hisoblari asosida G.Xlopin, N.Ushinskiy, Ye.Neznamovlar tahriri ostida chop etilgan "Samoubiystvo, pokusheniya na samoubiystvo i neschastnie sluchai sredi uchashixsya uchebnix zavedeniy M.N.P." (Xalq ta'limi vazirligi o'quv yurtlari o'quvchilari o'rtasida o'z joniga qasd qilish, o'z joniga qasd qilishga urinish va baxtsiz hodisalar), nomli to'plam bolalar va o'smirlar suitsidining statistik tahlili asosida yaratilgan "Samoubiystvo detey" (Bolalarning o'z joniga qasd qilishlari) nomli asari ham bu sohada olib borilgan muvaffaqiyatli ilmiy tadqiqotlardan biri sifatida qabul qilinadi. Muallif o'z xulosalarida bolalar va o'smirlar suitsidi faqatgina ruhiy nosog'lomlik natijasida sodir etiladigan hodisa bo'lmasdan balkim, ruhiy sog'lom bolalar va o'smirlarda ham sodir etilishi mumkin bo'lgan hodisadir deb ta'kidlaydi. U bolalar va o'smirlar suitsidining 12 xil ko'rinishini ta'kidlab, uning kelib chiqishidagi asosiy sabab va motivlari haqidagi e'tiborli fikrlarni ilgari suradi. Xususan, suitsidial xulqni keltirib chiqaruvchi sabablarni "endogen" va "ekzogen" sabablarga bo'ladi. Endogen sabablarga bola psixikasining yosh psixologik xususiyatlari natijasida vujudga keladigan suitsidal xulq, uy va niyatlarni kiritisa, "ekzogen" sabablarga esa ijtimoiy muhit ta'siri va shaxslararo nizolar tufayli vujudga keladigan suitsidal xulqni kiritadi.

Vrach I.A.Sikorskiy ilmiy tadqiqotlari ham o'z davrida bolalar va o'smirlar suitsidini tadqiq qilish va uning oldini olishga muhim hissa qo'shadi. U asosan bolalar va o'smirlar suitsidini psixiatrik nuqtai nazaridan tahlil qilib, bolalar suitsidi ham kattalar suitsidi singari ruhiy nosog'lomlik mahsulidir degan tushunchaga qat'iy qarshi

chiqadi. I.A.Sikorskiy bolalar va o'smirlar suitsidini oldini olishda vrachlik psixiatrik yordami berishni kuchaytirish zarurligini uqtiradi. U bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishi ulardagi xulq o'zgarishi va irodaviy sifatlarning mustahkam emasligiga bog'liqdir deydi. Muallif bolalar va o'smirlar suitsidini psixologik jihatdan tadqiq qilish borasida ham qator ijobiy fikr va mulohazalarni ilgari suradi. Xususan, bolalar va o'smirlar suitsidi faqatgina ruhiy nosog'lomlik mahsuli bo'lmasdan balki, o'zini yo'qotib quyish, individual-psixologik xususiyatlar va yosh davri inqirozlari ham suitsidga sabab bo'ladi deb hisoblaydi. Bu o'z davrida I.A.Sikorskiyning muhim kashfiyotlaridan biri bo'ldi. So'ngra B.A.Bernaskiy, I.A.Sikorskiyning nazariyasini davom ettirib, uni rivojlantiradi va bolalar o'smirlar suitsidi sabablari sifatida shaxslararo nizolar, kattalarning bolalar ko'nglini tushunmasliklari, jismoniy va ma'naviy tahqirlashlari hamda yosh davri inqirozlari kabilarni keltiradi. U bolalar va o'smirlar suitsidining oldini olish haqida gapirib, bolalarda mustahkam irodaviy sifatlarni shakllantirish, harakat qat'iyligi va iymon-e'tiqodlilik hissini tarbiyalash lozimdir deb ta'kidlaydi. Shuningdek, u suitsidining oldini olishda keng aholi o'rtasida suitsidni "reklama" qilishdan voz kechish kerakdir degan xulosaga keladi.

Ayrim tadqiqotchilar suitsidning kelib chiqishida agressiv va avtoagressiyaning ta'siri kattadir deb ko'rsatadilar. Lekin bu nazariya ham bolalar suitsidini ilmiy jihatdan tushuntirib berishning uddasidan chiqqa olmaydi. Natijada suitsidal xulqning bu nazariyasi ilmiy jamoatchilik o'rtasida tortishuvga sabab bo'ladi va tanqidga uchraydi. Masalan, K.Makita va uning tarafdorlari suitsidal xulqning kelib chiqishida agressiya emas, balki depressiya (o'ta kuchli emotsional qo'zg'alish) ning o'rni kattadir deb ko'rsatsa, ba'zi tadqiqotchilar suitsidal xulq shaxs xulq atvoridagi o'zgarishlar tufayli yuzaga keladigan "anglanilmagan" o'ziga shikast yetkazishiga qaratilgan xatti-harakatdir deb ta'kidlaydilar. S.P.Soubrier (1976), Spiling (1959), S.Desport (1952) larning tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidining kelib chiqishida depressiv holat emas, balki somatik kasalliklar va xulq atvoridagi o'zgarishlar (dars qoldirishlar, dars tayyorlamasdan kelish va boshqa) ta'sir qiladi va u depressiv holatning qiyofasini yashirishga olib kelib, muammoli vaziyatlarda suitsidga sabab bo'ladi deb ta'kidlanadi.

Suitsidal xulqning kelib chiqishida depressiyaning o'rni kattadir degan nazariyaning yuzaga kelishi suitsidni tadqiq qiluvchilarni ikki qarama-qarshi oqimga bo'linishiga olib keldi. Birinchi guruhdagi tadqiqotchilar fikriga ko'ra suitsidal xulqning kelib chiqishida depressiya asosiy o'rinni egallaydi va u bolalar va o'smirlar suitsidining sodir etilishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi deb ta'kidlashsa, ikkinchi guruhdagi tadqiqotchilar bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning yuzaga kelishida depressiyaning asosiy o'rin tutishini inkor qiladilar. Tadqiqotchilar o'rtasida bunday bo'linish nafaqat depressiyaning suitsidal xulqning kelib chiqishiga ta'sir o'tkazishi masalasini o'rganishga balki, depressiyaning aniqlashning diagnostik metodlarini ishlab chiqish rivojiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

A.G.Ambrumova, S.V.Trayniva, N.V.Umanskiy (1983) kabi tadqiqotchilar xulq og‘ishini suitsidal xulqni keltirib chiqaruvchi sabablardan biri sifatida ta’kidlashib, bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining ko‘rinishlari va ularning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi omillarni ko‘rsatadilar. Ular quyidagichadir:

1. Patologik irsiy moyillik, surunkali alkogolizm va ruhiy nosog‘lomlik;

2. Konstitusional xususiyatlar, xarakter aksentuatsiyasi;

3. Ijtimoiy biopsixologik chekinish va xulq-atvor reaksiyalari;

4. Jamiyatning ijtimoiy psixologik sabablari;

A) moddiy boylikka intilish natijasida ma’naviy qashshoqlanish;

B) diniy e’tiqod va an’analarning unutilishi;

C) oilaviy munosabatlar deformatsiyasining izdan chiqishi;

D) atrof-muhitning turli-tuman informatsiyalar bilan to‘lib toshishi natijasida hayotning jadallashuvi;

E) tarbiya jarayonida individual psixologik yondashuvning yo‘qligi.

Boshqa ilmiy adabiyotlarda ham bolalar va o‘smirlarda xulq og‘ishining bir qator klassifikatsiyasi keltiriladi. Jumladan V.N.Kudryavsev (1984) bolalar va o‘smirlar xulqi og‘ishining ijtimoiy huquqiy me’zoniga asoslangan klassifikatsiyasini, A.E.Lichko (1975) o‘smirlarda xarakter reaksiyalari tufayli vujudga keladigan xulq og‘ishi turlari klassifikatsiyasini va shaxs xususiyatlarini (tiplarini) keltiradilar.

Bir qator tadqiqotchilar bolalar va o‘smirlarning yosh xususiyatlari hamda ulardagi impulsivlik, emotsional beqarorlik va hayotiy tajribalarning yetishmasligi xulq og‘ishini keltirib chiqarish bilan birga suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi va suitsidal urunishni tezlashtiradi deb ko‘rsatadilar. A.G.Ambrumova va Ye.M.Vronalarning ta’kidlashlaricha, impulsivlik, emotsional beqarorlik va kuchli qo‘zgaluvchanlik ko‘pchilik o‘smirlarga xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlardan biri bo‘lib hisoblanganligi uchun ularda istalgan paytda va arziyas nizoli vaziyatlarda ham suitsidal xulq kelib chiqishi mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar affektiv holatlar bolalar va o‘smirlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi deb ko‘rsatadilar. Jumladan, I.V.Polyakovaning ta’kidlashicha, bolalar va o‘smirlar suitsidi patopsixologik omilga bog‘liq bo‘lmasdan, balki ko‘pincha shaxsning affekti va holatlaridagi psixik kechinmalariga bog‘liqdir. Muallifning fikriga ko‘ra affektiv holatda autoagressiv xulq ikki asosiy xususiyatga ega, ya’ni nizoli vaziyatning mavjudligi va nizoli vaziyatni bartaraf etib bo‘lmaydigan suitsidogen omil sifatida baholanishi. Shuningdek, I.V.Polyakovaning ta’kidlashicha affektiv reaksiyalarda suitsidal xulq haqidagi uy va niyatlarning namoyon bo‘lishi va uning amalga oshirilishida shaxs xususiyatlari, ustanovkalari va qadriyatlar orientatsiyasining roli kattadir.

Bolalar va o‘smirlar suitsidining psixologik ma’nosini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda asosan bolalar va o‘smirlar suitsidining psixologik ma’nosi va uning

o'ziga xos xususiyatlari hamda suitsidentlarning individual psixologik xususiyatlari tadqiq qilinadi. Suitsidal xulqning psixologik ma'nosini o'rganish o'z joniga qasd qilishni amalga oshirgan suitsidentlardagi o'zini hayotdan mahrum etishga qaratilgan xohish va intilishning qay darajada ekanligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'zini hayotdan ketkazishga qaratilgan xohish va intilish har doim ham haqiqiy mazmunga ega bo'lavermaydi. Shuning uchun suitsidal urinishning oxirgi maqsadi (o'lim) va uning psixologik ma'nosi doim ham mos kelavermaydi.

A.E.Shir o'z tadqiqotlarida bolalar va o'smirlarda suitsidal xulqning quyidagi turlarini keltirib o'tadi:

1. Oldindan o'ylangan, ya'ni autoagressiv (o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik) xarakteriga ega bo'lgan va oldindan o'ylangan suitsidal uy va niyatlar asosida sodir etilgan haqiqiy suitsidal urinishlar. Bunday suitsidal urinishlar surunkali nizoli vaziyatlarda vujudga kelib, unga uzoq muddat tayyorgarlik ko'rib, qulay imkoniyatlarga qarab, amalga oshiriladi.

2. Barham berib bo'lmaydigan suitsidal xulq. Bunday suitsidal urinishlar ruhiy nosog'lomlik va kuchli suitsidal tendensiyalar asosida sodir etilgan suitsidlardir. Bu ko'rinishdagi suitsidal urinishlarda ham autoagressivlik mavjud bo'lib, faqatgina bu xususiyat ruhiy nosog'lom va ruhiy nosog'lomlik chegarasida turgan bolalar va o'smirlarga xosdir.

3. Ambivalent suitsidal xulq. Bunda autoagressiya xulq atrofga yo'naltirilgan bo'lsada, biroq o'zini hayotdan mahrum yetishga qaratilgan haqiqiy suitsidal xulq ham ma'lum darajada mavjud bo'ladi.

4. Impulsiv (affektik) suitsidal xulq. Bunday suitsidal urinishlar kuchli ta'sirlanish tufayli to'satdan amalga oshiriladigan suitsidlardir.

5. Namoyishkorona suitsidal xulq. Bu ko'rinishdagi suitsidal urinishlar kuchli ruhiy jarohatlanish holatlarida amalga oshirilib, ko'pincha u "suitsidogen kishi" ko'z o'ngida sodir etiladi.

Bolalar va o'smirlar suitsidini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularda bolalar va o'smirlar suitsidal xulqning shakllanishi, rivojlanib borishi va amalga oshirilishi bilan bir qatorda suitsident bolalarning suitsidoldi holati va suitsidal xulqni ifodalovchi ayrim belgilar, ya'ni somatik o'zgarishlar va bolalar va o'smirlar suitsidining psixologik ma'nosining ham tahlil qilinganligini ko'ramiz. Jumladan, V.L.Xaykin tadqiqotlarida bolalar va o'smirlar suitsidal xulqini ifodalovchi quyidagi xususiyatlar keltirib o'tiladi:

1. Xulq o'zgarishining turli xil ko'rinishlari va suitsidal xulqning boshlanishi haqidagi belgilarning namoyon bo'lishi (o'z-o'zinipast baholash, emotsional beqarorlik, impulsivlik).

2. Nomaqbul vaziyatlar va kechinmalarga nisbatan bo'lgan shikoyatlar, suitsidal uy va niyatlar hamda fikrlarning mavjudligi.

3. O‘z joniga qasd qilishning amalga oshirilishi.

Shunday qilib, yuqorida bolalar va o‘smirlar suitsidal xulqini o‘rganishga qaratilgan ilmiy manbalar tahlili, bolalar va o‘smirlar suitsidining qator xususiyatlari yoritib berilganligini ko‘rsatadi, biroq etnopsixologik, hududiy, individual-psixologik tomonlarining yetarlicha o‘rganilmaganligining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
2. Elov Z.S. O‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta‘siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
3. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo‘llanma. 2021. Buxoro 1-164.
4. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.
5. Elov, Z. S. (2022). O ‘smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta‘siri. Science and Education, 3(3), 442-447.
6. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017
7. Furqatovich, U. F., & Sattarovich, E. Z. (2022). SUICIDE–AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.
8. Jo‘Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o‘tkazishning o‘ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.
9. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o‘quv qo‘llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон
10. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. АВЕЗОВ О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
11. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.
12. Olimov L.Ya. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, “Durdona”. 2019. – 460.

13. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защита: ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

14. Olimov, L. (2021). maqola СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ: СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7)..

15. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). PRIORITIES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.

16. UFF Elov Ziyoddullo Sattorovich. SUICIDE – AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL 1 (Volume 3 ...

17. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

18. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdoni" nashriyoti. Buxoro. 2021

19. қизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). ЎСМИР ШАХСИ РИВОЖЛАНИШИДА АҲЛОҚИЙ НОРМАЛАР МУАММОСИНИНГ ҲОЗИРГИ ЗАМОН ПСИХОЛОГИЯСИДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 204-207.

20. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

21. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.

22. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

23. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

24. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. XXI аср психологияси 1 (1), Ўзбекистон
25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
26. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -В. 420.
27. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).
28. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. Psixologiya, 4, 16.
29. Элов, З. С. (2015). Суицидал уринишларни содир этишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). Psixologiya, 2, 18.
30. Элов, З. С. (2016). Суицидал хулқ шаклланиши ижтимоий-психологик муаммо сифатида (ички ишлар идоралари ходимлари мисолида). Psixologiya, 3, 23.
31. Элов, З. С. (2017). Профилактика самоубийств сотрудников оvd. Вестник интегративной психологии, 208-212.
32. Элов, З. С. (2021). Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2, 26-28.
33. Mahmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов, (22), 233-237.
34. Mahmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. Osmirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021.
35. Олимов, Л. Я., & Махмудова, З. М. (2021). Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материалли. Тошкент, 489-493.